

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLAR VA ILG'OR TAJRIBALAR

Hayitova Muxlisa Jo'ra qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20046914>

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda didaktik yondashuvlarning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalar asosida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish yo'llari yoritiladi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ijodiy faoliyat, didaktik yondashuv, boshlang'ich ta'lim, innovatsion metodlar, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash, ta'lim samaradorligi..

Hozirgi globallashtirish va axborotlashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor shaxsni tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda bolalarning tafakkuri, tasavvuri va qiziqishlari shakllanadi. Didaktik yondashuvlar orqali ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishda samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli ushbu tadqiqotda zamonaviy metodlar asosida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari o'rganiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida mavzuga oid o'quv adabiyotlarini tahlil qilish, suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar, kuzatish kabi metodlardan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Ijodkorlik- faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo'yilmagan, hal etuvchi vosita bo'lib hisoblanmagan intilishdir. Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy ijodiy izlanishlarga yo'llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o'z samarasini beradi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo'yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samaralidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatni shakllantirishda va rivojlantirishda ta'lim muassasalari o'рни asosida ta'lim-tarbiya sifatini integratsiyalash, o'quv dialogi asosida ta'lim jarayonini individuallashtirish, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishning metodik tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'limga yangicha yondashuvlar ta'sirida ta'lim muassasalari faoliyatni takomillashtirishning muhim belgisi sifatida ijodiy yondashuvni qaror toptirish muammosi tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga ta'lim nazariyasi va amaliyoti ta'lim muassasasi faoliyatni ilmiy-metodik asosda takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatni rivojlantirishda ta'lim muassasalarning hamkorligi quyidagilarga asoslanadi :

birinchidan, jamiyatda ijtimoiy va pedagogik jarayonlarning jadal sur'atlarda amalga oshirilayotganligi (munosabatlarning insonrarvarlashuvi va demokratlashuvi, inson omili rolining kuchayayotganligi, innovasion jarayonlar asosida ta'lim-tarbiya sifatining oila hamda ta'lim, maktab muammolariga xalq e'tiborining ortib borayotganligi va h.k.);

ikkinchidan, umumiy, ta'lim muassasalarining hamkorlik holati (o'qituvchi va o'quvchilarga etarli darajada pedagogik qo'llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o'quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari; o'qituvchilarning o'quvchilar bilan insonrarvar va do'stona munosabatni tashkil etish malakalarining etarli emasligi va h.k.);

uchinchidan, hamkor ta'lim muassasalarining ta'limiy innovasiyalarga katta ehtiyoj sezishi (boshlang'ich sinf o'quvchilarining shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaning innovasion texnologiyalarini ishlab chiqish va dars jarayoniga tatbiq etish va h.k.);

to'rtinchidan, maktab ta'limini samarali tashkil etishda oliy ta'lim muassasalari bilan doimiy aloqani ushlab turish orqali yangi metodikalarni o'zlashtirish (mavjud muammolarni ilmiy tahlil qilish ...)

beshinchidan, buyurtmachi sifatida ota-onalarning hamkorligini ta'minlash (uydagi ta'limning uzluksizligini ta'minlashdagi ularning bilimi, bolaning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olgan holda maqsadga yo'naltirish va x.k.).

Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o'qitish ("cooperativ learning") birgalikda o'qitish an'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni

ko'rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarning interfaolligi, o'zaro aloqadorligi va o'zaro mas'uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o'zaro birgalikdagi harakatiga individual mas'uliyati va yo'nalganligini ta'minlaydi. Hamkorlik ta'lim samaradorligini oshirish omili hisoblanib, ta'lim sub'ektlar faolligi uni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim sifatini takomillashtirish deganda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tizimli loyihalashtirish va pedagogik qo'llab-quvvatlash, qayta aloqaning intensivligini ta'minlash, pedagogik tizimning ochiqligi, dinamikligi, statistikligi, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishi, intellektual, hissiy, axloqiy, madaniy, jismoniy imkoniyatlarini faallashtirishga erishish tushuniladi. Jahondagi oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish asosida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Zamonaviy oliy ta'lim tizimini kreativ yondashuv asosida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan oliy ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning innovatsion texnologiyalarini yaratish, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik jarayonlar asosida raqobatbardosh mutaxassiskadrlarlarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash hamda rivojlangan mamlakatlar ta'lim standartlari talablariga har tomonlama javob beradigan raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi mutaxassiskadrlarni tayyorlashga qaratilgan o'qitish jarayonini takomillashtirish zaruratini yuzaga kelmoqda. Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida o'quvtarbiya jarayonini sifatli tashkil etish dolzarb hisoblanadi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lim sifatini oshirish va olim ta'lim qamrovini kengaytirish, davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga

kiritish, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini ikki baravarga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga yo'naltirib o'qitishda hamkor ta'lim muassasalar va oilalar bilan birgalikda ta'lim jarayoni sifatini takomillashtirishning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: joriy va strategik rivojlanish jarayonni tahlil qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, o'qitishning taktik va strategik vazifalarini loyihalashtirish; ta'limni boshqarish organlari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o'z -o'zini boshqarish organlari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini ustuvorligiga erishish, ularning huquq va mafaatlarini himoya qilishning samarali usullarini joriy etish; ta'lim sohasidan manfaatdor guruhlarning talab va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning individualligini to'liq qo'llab-quvvatlash va faol hamkorlikni ta'minlashga erishish.

Shu o'rinda ta'lim klasteri muhiti xususida qisqacha to'xtalib o'tish joiz. Ta'lim klasteri muhiti deganda, manfaatli hamkorlarning boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy qobiliyatini shakllantirish jarayonidagi va ayni paytda bir-birini to'ldiruvchi faoliyati nazarda tutiladi. Masalan, Texnologiya darslarida o'quvchilarning yakka ishlashini tashkil qilishda o'quvchilarda faollikni, mustaqillikni tarbiyalash, uning torshiriqni har bir o'quvchi ishni o'zi bajarishi kerak. Torshiriqlar bir xil yoki tabaqal angan holda bo'lishi mumkin. Tabiiy holki o'quvchi bunday torshiriqlarga kimnidir yordamiga muhtojlik sezadi. Agar o'quvchi faoliyat davomida xato qilsa yoki qiynalsa, o'qituvchi yoki uning ota-onasi yordam berishi kerak bo'ladi. Mustaqil ishlar oraqali o'quvchilarda mehnat malakalari, modellashtirish ko'nikmalari tarkib torishi kerak bo'ladi. Ya'ni: ish rejasini tuzadi; talabnoma tuzadi; ish yuzasidan hisobot beradi. Shunday qilib, ta'lim muassasasida o'quvchining amaliy ko'nikmasini shakllantirishga yangicha metodik ta'minot (OTM bilan hamkorlik), ta'lim texnologiyalarini aniq bajarishga yo'naltirish (o'qituvchi), pedagogik shart-sharoit (maktab), moddiy ta'minot (xokimlik, yuqori turuvchi tashuilotlar), darsni samarali yakunlash (o'quvchi) imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish modeli aqliy va estetik tarbiya uyg'unligidagi ko'rgazmalilik, vaziyatga moslashish kabi tamoyillarga asoslangan. Bu yondashuvning pedagogik shar-sharoitlari o'quvchilarning "tabiat va ijodiy muhit" munosabatiga asoslangan ta'lim-tarbiyaviy hamda texnologik jarayonida yakka, jamoaviy ishlash kabi o'quvchilarning o'zini-o'zi rivojlantirishga qaratilgan moslashuvchan (mobil) muhitni yaratishni ko'zda tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, didaktik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning ijodiy fikrlashini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ayniqsa, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar qo'llanilganda o'quvchilarning mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatlari oshadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

3. Karimova, Z. “Tabiiy materiallardan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish”. O‘zbekistonda ta‘limni modernizatsiyalash jurnali, 2024, № 2.
4. Yo‘ldoshev, O. “Ekologik tarbiya va ijodiy yondashuv: boshlang‘ich ta‘limdagi yangi imkoniyatlar”. Zamonaviy ta‘lim izlanishlari, 2023, № 4.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap for the Future. Paris: UNESCO Publishing, 2023.
6. Torrance, E. P. (Muharrirlik asosida qayta nashr). The Updated Torrance Tests of Creative Thinking. Cambridge: Academic Press, 2022.
7. Davlatov, R. “Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion metodlar”. Innovatsion pedagogika va psixologiya, 2023, № 1.
8. Gardner, H. (2023). Revisiting Multiple Intelligences: New Perspectives. New York: Harper Academic.
9. OECD. Future Skills for Creative Education. Paris: OECD Publishing, 2023.
10. Avloniy, A. (2024-yil tahriri). Turkiy Guliston yoxud axloq: zamonaviy pedagogik talqin. Toshkent: “Ilm Ziyo” nashriyoti.